

**PEDAGOGIK TA'LIM YO'NALISHLARIDA XORIJIY TILLARNI  
O'QITISHNING AHAMYATI*****Toshpo'latova Barchinoy****Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti  
Pedagogika Fakulteti Pedagogika yo'nalishi**8-P-22-guruh talabasi**barchinoytoshpolatova086@gmail.com****Qayumova Mohinur Murodullayevna****Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti**Filologiya Fakulteti ingliz tili o'qituvchisi**Tel: 998978457020**[mohinurqayumova10@gmail.com](mailto:mohinurqayumova10@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogika ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalarga ingliz tilini o'qitish va sohalariga oid malumotlarni to'play olishlari uchun zarurligi haqida. Rivojlanib borayotgan pedagogika sohasiga oid malumotlarni ingliz tilida chop etilishi borasida. Dunyo tan olgan 6 tilning biri bu ingliz tili va 78% adabiyotlar internet malumotlar aynan shu tilda birinchi nashr qilinishi bayoni. Bu boradagi ilg'or tashkiliy ishlarni atroflicha o'rganib chiqish va talabalarga ixtiyoriy va majburiy tarzda mustaqil ingliz tilini o'rganishga jalb etish xususida.

**Kalit so'zlar:** Pedagogika, ingliz tili, talabalar, innovatsion metod, globalashuv,

**Kirish**

Germaniyaning Statiska marketing malumotlariglar kompaniyasi tadqiqot o'tkazdi va odamlar eng ko'p gapiradigan tillar ro'yxotini tuzdi. Tadqiqotlar natijasida esa eng ommabob 10 ta tillar reytingida birinchi o'rini ingliz tilli bo'lib undan 1,5 mliardga yaqin aholi so'zlashadi, bundan tashqari 40 ta davlatda rasmiy til hisoblanadi. Bundan tashqari odamlar uni ko'proq o'rganishga intilishadi. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishda yuritimizda keng shart- sharoit yaratilmoqda. Oliy Ta'lim muassasida o'qiyotgan har bir bo'lajak pedagog albatta xorij tilini o'rganishga harakat qilmoqda. Bunga sabab esa yurtimizda adabiyotlarni nashrdagi holati va umuman ba'zi adabiyotlarning yo'qligi. Chet tillarini o'rganish va o'rgatish barcha rivojlangan mamlakatlar qatori Vatanimiz O'zbekistonda ham jadal rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganishadi. Atoqli shoirimiz G'ofur G'ulom "Idrokli yoshlarimizning ko'pchiligi uch til egasidir" deb takidlab o'tganlar o'zing "Ko'p tilni bilish xosiyati" asarida. Xaqiqatdan Ham o'sha davrlarda o'zbeklar asosiy uch tilni mukamal o'ranishgan va o'rgatilgan. Asosiy e'tibor esa rus tiliga qaratilgan edi. Xozirgi kunda esa ingliz tilini

bilmasdan biron davlatga sayohatga borganda ham xorijiy tillardan ommabobini bilish orqali hech qanday ko'ngilsizliklarsiz sayohatdan zavqlanish mumkin.

### Adabiyotlar tahlili va metodlar

Insonlarning o'zaro muloqatini taminlovchi asosiy manba bu o'zi yashab turgan joyining tili. O'zi tug'ilib o'sgan mamlakatidan boshqa mamlakatga borish uchun esa avvalo o'sha mamlakat tilini o'rganishi kerak. Buning uchun esa o'rganib olingan xorijiy tilining adabiyotlari va o'rgatuvchi tomonidan qo'llaniladigan maxsus metodlar yordamida o'sha tilni o'rgandi. Xorijiy tilni mukammal o'rganish uchun esa birinchi o'rinda amaliy vositalardan ya'ni so'zlashuvdan foydalanishi lozim. Amaliy esa o'sha tilda muloqat qilishni anglatadi. Hozir taraqqiy etayotgan zamonda har qanday tilni o'rganuvchilar uchun o'sha tilda muloqot qilish imkonini beradigan ilovalar yaratilmoqda. Bu ilovalarda darajangizga qarab o'zingizga mos keladigan inson bilan o'zaro muloqat qilish imkoniyati mavjud. Boshida ham aytib o'tganimday, hozirda eng ommabob til bu ingliz tili va bu tilni o'rganish uchun juda ko'p adabiyotlar mavjud. Adabiyotlarni aksariyati ijtimoiy tarmoqlardagi video ro'lik shaklida yaratilgan. Mamlakatimizda esa xorijiy tillarni o'rganish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Masalan, imkoniyati cheklangan vaqtlarda malum tilni o'rganishga mablag'i cheklangan o'quvchi talabalar uchun yaratilgan onlayn platformalar mavjud. Ulardan eng ommalashayotgani bu "Ibrat akademiyasi" bo'lib bu platforma youtube, telegram, instagram va facebook ijtimoiy tarmoqlarida ham o'z faoliyatini olib bormoqda. "Ibrat akademiyasi" da G'arbiy Yevropa (ispan, nemis, fransuz, ingliz tili boshqalar) tillari, Sharq (arab, tojik, turk, fors) tillarini o'rganish mumkin. Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalariga uchun esa darsdan bo'sh vaqtlarida o'zlari qiziquvchi xorijiy tilni o'rganishlari uchun institutda maxsus to'garaklar tashkil etilmoqda.

**Xorijiy til-** bu chet mamlakatlarining tili. Hozirgi kunda pedagogika yo'nalishi talabalariga institut tomonidan majburiy o'qitiladigan tillar bu rus va ingliz tillari bo'lib. Bo'lajak pedagoglarga rus tili bir semest o'tilsa, ingliz tili 2 semestni tashkil qilmoqda. Ko'rinib turibdiki hozirgi kunda ingliz tili eng ommabob til bo'lganligi uchun ham chop etilayotgan malumotlar bazasi aynan shu tilda. Bo'lajak pedagoglar esa o'z malumotlar bazasidan unimli foydalanishlari uchun ham ingliz tilini o'rganishi lozim. Xorijiy tilni o'rganishda asosiy qiyin tarafi bu talaffuzi ya'ni nutqning talaffuz qilishga qiyinalishi turgan gap. Shu boisdan xorijiy tilni o'rganuvchilarga eshitib talaffuz qilishlari uchun o'sha tilda yangragan musiqalarni tinglash va talaffuz qilishga undash vazifasi beriladi. Zero bola tug'ilgandan so'ng beshikka yotqizilib unga o'z ona tilida alla aytilishi, ota-onasining faqat o'zi bilgan tilida muloqat qilishi asosiy sabab bo'ladi. Demak biz xorijiy tilni o'rganish uchun o'zimizga o'sha tilda so'zlashuvchilar bilan muloqat qilishimiz kerak.

**Metodika-** Har bir fanda o‘z tushunchalar yig‘indisi mavjud. Chet til o‘qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ta‘lim sistemasi, ta‘lim metodi, ta‘lim prinsipi, ta‘lim vositasi, metodik usul.

Xorijiy tili metodikasi deganda o‘sha tilning amaliy va umumta‘limiy va tarviyaviy rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni taminlovchi ustoz desak ham bo‘ldi.

**Umumiy va xususiy metodika.** Fanlarda umumiy va xususiy chegaralanish kuzatiladi, shu bilan birgalikda fanlarda ham fanlar ham xususiy va umumiyga bo‘linadi. Misol uchun umumiy psixologiya va xususiy psixologiya, umumiy pedagogika va xususiy pedagogika bo‘gani kabi xorijiy tilni o‘rganishda ham umumiy va xususiy metodlar mavjud. Xorijiy til materiallarini tanlash, taqsimlash, tasnif va bayon etish muommlarini umumiy metodikaning vazifalari sanaladi. U yoki bu xorijiy tilni aniq pedagogik sharoitga o‘qitishga doir ilmiy malumotlar xususiy metodikadan izlanadi. Masalan, ixsoslashtirilgan litsey maktablarida o‘zi o‘rganmoqchi xorijiy tilga mo‘ljallangan yo‘nalishni tanlaydi.

### XULOSA

Chet til o‘qitish metodikasi sohasida astoydil xizmat qilgan mutaxassislar va boshqa sohadagi ayrim olimlar ism-sharifi av alan to‘liq yozildi. Soniyani, ismi va otasi ismining bosh harflari va familiyasi to‘laligicha berildi. Birinchi bor ismlarni to‘liq yozishdan muddao shu sohadagi yetakchi olimlarning nomi atalganda, faqat familiyasinigina aytish bilan cheklanmay, ularning ismi, otasining ismi va familiyasini to‘la ishlatishga o‘rgatiladi. Masalan: Igor Vladimirovich Raxmanov, Aleksandr Aleksandrovich Miroyubov, Valentina Samoylovna Setlin, Harold Palmer, Robert Lado, Irina Alekseyevna Zimnyaya, Hoshimjon Soynazarov, Reyngold Nikolayevich Kremer, Tojimat Qodirovich Sattorov kabilar. „Chet til o‘qitish metodikasi“ darsligi o‘zbek tilida ilk tajriba ekanligi barcha mutaxassislarga ayon. Shu tufayli ba‘zi kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lishi tabiiydir. Kitobning ilmiy saviyasini yanada oshirishga qaratilgan chin maslahat va xolis amaliy-tanqidiy fikrlarni muallif muamuniyat bilan qabul qiladi. Xulosa qilsak O‘zbekistonda xorijiy tilni o‘rganish uchun katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Barcha mamlakatlar o‘zlarining tilini dunyo miqyosiga chiqarish uchun o‘z tilini ommalishtirish uchun ishlamoqda. Yaqol mison sifatida kores tili ommalashishiga asosiy sabab doroma va kpopning o‘rni katta. Keyingi yillarda chet til o‘qitishda testlar o‘tkazish ommaviy tus oldi. Qisqa davr mobaynida o‘quvchilar nutq ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishda test qulay bo‘lganligidan uning tez va keng tarqalish sababini payqab olish mumkin. Testlar eksperiment oldidan va undan keyin o‘tkazilishi amaliyotda sinab ko‘rilgan. Tajribasinovdagi ilmiy farazning tasdiqlanish tasdiqlanmasligida testning ahamiyati behad kattadir. Test texnika vositalari bilan yoki bosma materialni oddiy qo‘llash bilan o‘tkaziladi. Til o‘rganishda yoki umuman hayotda voqe bo‘ladigan qiyinchiliklar sabab va oqibatning bir-biri bilan bog‘liq ravishda aniqlanadi. Qiyinchilikni oldindan

aniqlash, uning sabablarini bilish mumkin. Qiyinchilikning yuzaga chiqishi xatolar turi va ko‘zlangan natijaga erishish darajasi bilan belgilanadi. O‘quvchilarning o‘zgaruvchan nutqini idrok etib, uning mazmunini fahmlay olishlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo‘lida tinglab tushunishning psixofiziologik mexanizmlarini to‘g‘ri shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muxlisa, Sobirjonova, and Qayumova Mohinur. "LINGVOKULTURALOGIYANING KELIB CHIQISH TARIXI." Евразийский журнал академических исследований 2.3 (2022): 379-383.
2. Qayumova, Mohinur Murodulayevna. "THEORETICAL-METHODOLOGICAL ANALYZE OF COSMOS AND INDIVIDUAL ON CONTEXT OF EXPERIMENTAL SCIENCE." Интернаука 28 (2018): 77-79.
3. Ergashovna M. G. TYPES OF FABRICS AND THEIR ANALYSIS //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 59-61.
4. Qayumova, Mohinur Murodullayevna, Muhlisa Sobirjonovna Sobirjonova, and Feruz Qurbonaliyevich Saidov. "Galileo’s influence on John Milton concept “individual”. Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton." Science and Education 2.6 (2021): 494-498.
5. Jamol Jalolov "CHET TIL O‘QITISH METODIKASI" — „O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI TOSHKENT - 2012

Veb-sayt:

1. URL: <https://moluch.ru/archive/258/59326/>
2. ( <https://moluch.ru/archive/311/70121/> )
1. Teaching English, British Council, BBC.  
<https://www.teachingenglish.org.uk/article/developing-cross-cultural-awareness-monolingual-classroom-0>
2. Kun/uz/news